JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 22 - fevral 42-3-52-Q/24 Paxtakor tuman hokimligi

Yo‘l belgilari hamda to‘siqlar o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi Avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlan to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 27-dekabrdagi 41/1823-sonli, tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 26-yanvardagi 17-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 27-dekabrdagi 41/1823-sonli, tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 26-yanvardagi 17-sonli xatlarini inobatga olinsin.

2. Quyidagi:

- 4R-35 Jizzax sh - Paxtakor sh - Do‘stlik sh - Gagarin sh-M-39 Avtomobil yo‘li (918 km) Avtomobil yo‘lining 33,2 km chap tarafiga “Do‘stlik” mahallasi hududidagi Yunus Rajabiy ko‘chasiga kirishda avtomobillarining bir tomonlama harakatlanishini ta’minlashda va Yunus Rajabiy ko‘chasidan A.Qodiriy ko‘chasiga kirishning kesishma qismini yopib berishga;

- “Do‘stlik” MFY Sh.Rashidov ko‘chasining kirish qismiga 3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlanadi” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Do‘stlik” MFY hududidagi Y.Rajabiy ko‘chasidan, “Toshkent” MFY hududidagi A.Qodiriy ko‘chasining kirish qismiga 3.27 “To‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Do‘stlik” MFY Yunus Rajabiy ko‘chasiga harakatni ta’minlash uchun ko‘chaning boshlanish qismiga “Kirish taqiqlanadi” 3,1 “Bir tomonlama harakatlanish” 5,5 va “Bir tomonlama harakatlanishning oxiri” 5,1 yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiyev)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Akaboyev) va IIB YHXB (G‘.Erbekov)larga tuman hududidagi ba’zi ko‘chalar bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**